



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

BADIIY MIFLARDA ZAMON IFODASI TALQINI

Raxmatullayev Ziyodullo Xabibullayevich
Alfraganus universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiy xronotop shakllari o'z ifodasini topgan. Ayni damda, inson matlabi maqsadi va taqdiri haqida keng qamrovli fikr yuritgan yozuvchi ijodiy konsepsiyasi zamon shaklida yuzaga chiqish tamoyili tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: zamon, uslub, makon. Obraz, mif, poetika, shakl, ta'sir.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ВРЕМЕНИ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ МИФАХ

Рахматуллаев Зиёдулло Хабибуллаевич
Университет Alfraganus

Аннотация

В данной статье рассматриваются формы художественного хронотопа. Анализируется принцип воплощения творческой концепции писателя, в которой в форме времени раскрываются представления о человеческих устремлениях, целях и судьбе.

Ключевые слова: время, стиль, пространство, образ, миф, поэтика, форма, воздействие.

THE INTERPRETATION OF TIME EXPRESSION IN LITERARY MYTHS

Raxmatullayev Ziyodullo Xabibullayevich
Alfraganus University

Abstract

This article examines the forms of the artistic chronotope. It analyzes the principle by which the writer's creative concept—reflecting ideas about human aspirations, goals, and destiny—is realized through the category of time.

Keywords: time, style, space, image, myth, poetics, form, impact.

Davrlar bir-biri bilan shiddatkor ravishda o'rin almashar ekan, XX asrdagi kabi inson fenomeni "yashab qolish" dardi bilan og'rimagan bo'lsa, ajabmas. Chunki bir emas ikki marotaba jahon urushini boshidan o'tkazgan davr sinovlari Jeyms Joys, Frans Kafka, Albert Kamyu, Marsel Prust, Ernest Xeminguey avlodini elakdan o'tkazdi. Bularning har biri alohida bir olam ekanligini "vaqt mashinasi"ning o'zi isbotlab berdi. Inson taqdiri, hayotning puchmoqlariga qadar kirib borish fragmenti Joyslar boshidan o'tkazgan muhim bir "ruh og'rig'i" kabi chandiqli iz qoldirdi. Ayni damda, hayotning o'zi mif va roman, inson va tafakkur birligini yanada chuqurlashuviga katta imkon yaratdi. Mifologik maktab vakillari merosida adib va jamiyat birligi yaqqol ko'zga tashlansa, yangi asr ostonasida bo'y ko'rsatgan ramziy-majoziy ifoda madaniyati shunday yuzaga chiqa boshladi. Hayot silliq kechadigan jarayon emas. Uning ham o'z tushuncha va talqinlari bo'ladiki, buni eplay olgan odamgina o'ziga yarasha yo'lini topa oladi.

Jeyms Joysning ijodidan o'sib chiqqan qadim an'analarning yangicha sintezi o'zbek adabiyotida Isajon Sulton poetikasida qandaydir alohida bir mavqe kasb etgani ayonlashadi. Chunki yozuvchi mif va roman birligini, inson taqdiri bilan qadim zamonlar kishisi ruhiyatidan o'sib kelayotgan boqiylik va darbadarlik shukuhi bilan bezaydi. Natijada, yozuvchi boqiy umr kechiruvchi kim, darbadarlik, sarson-sargardon hayot kechiruvchi kim degan aqidani tushunib yetadi. Mana shu tamoyil hayotning ajralmas qismi ekanligini dalolatlaydi. Masalan, "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" asarida yozuvchi imkon qadar o'zini-o'zi taftish qilmaslikka ming chandon urinmasin, o'rab turgan muhitdagi odamlar kayfiyatini, ruhiyatini chinakam asl basharasini ochib tashlashga katta kuch topa olganligini ko'ramiz. Unda bir emas, bir qancha epizodlar faollashadi. Hayotning murakkab fragmentlari ziddiyatga kirishadi.

Rus munaqqidi M.Baxtinadiiy xronotop (makon va zamon)ga shunday ta'rif beriladi: "Badiiy asarda makon va zamon muammosi, garchi unga qadar ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa ham, bevosita "xronotop" termini rus olimi M.Baxtin tomonidan o'tgan asrning 30-yillarida adabiyotshunoslikka tatbiq etilgan. "Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makonaro uyg'unlikni xronotop (so'zma-so'z tarjimada makon-zamon degan ma'noni bildiradi), deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmida (Eynshteynning) nisbiylik nazariyasi negizida qo'llab kelindi. Istilohning biz uchun, matematikada qo'llanadigan, maxsus tushuncha sifatida ahamiyati yo'q. Uni adabiyotshunoslikka (tom ma'noda bo'lmasa ham) istiora o'laroq qabul qilamiz. Biz uchun muhimi, bu o'rinda istilohning zamon va makonni uyg'un holatda (zamonning makonning to'rtinchi o'lchami sifatida) ifodalashidir. Xronotopni biz adabiyotdagi shakl-mazmun kategoriyasi sifatida talqin qilamiz". Haqiqatdan ham, M.Baxtin ta'riflaridagi munosabatli nutaq makon va zamonni inson faoliyatining turli shakldagi harakatlari tarzida baholaymiz. Insonning har qanday vaziyatdagi kayfiyati, orzulari, asar arxitektonikasidagi tutgan o'rni, vazifasi negizida idroklash maqsadga muvofiqdir. Dunyoning har bir burchagida, badiiy asarning ro'y berish makoni, uni yuzaga chiqaruvchi zamoni bo'ladi. G'arb va Sharq badiiy an'analarga e'tibor beradigan bo'lsak, xronotop kecha-bugun-ertaga tarzida yorqin ranglarda namoyon bo'ladi.

Badiiy xronotopning asar syujeti va kompozitsiyasida ro'y berish holatini, shaklini va mazmunini quyidagi ko'rinishda tahlil qilib ko'ramiz.

Mif va badiiy makon uyg'unligi. Inson (yozuvchi), qahramon o'z-o'zini avtobiografik tarzda anglashi ham mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan qissalarning qahramonlari – yozuvchilarning o'zidan, ruhiyatidagi katta-kichik evrilishlardan alohida tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuni qayd etish lozimki, ushbu asarlarda avtobiografik talqin ustuvorligi aniq-tiniq seziladi. Nazar Eshonqulning "Tun panjaralari"da – tun bilan muloqot (Shayton bilan suhbat)ida, Robiyaning vaslini sog'inish, har qanday iztirob yozuvchi ruhiyatida tun timsoliga ramzlar shaklida uyg'unlashib ketadi. Tun – katta makon! Borliq va yo'qlikning bir bo'lagi sifatida yuzaga chiqadi. Tunsiz yozuvchi (qahramon) naqadar yolg'iz. Bu yolg'izlik uni katta bir choh tomon sudraydi. Tavbasi ham tazarrusi, e'tiqodi ham o'sha – yagona estetik makonda ro'y beradi. M.Baxtin antik yunon asarlari timsolida atamaga boshqacha yondashishni ma'qul ko'radi: "Inson o'z-o'zini avtobiografik anglashiga doir bu tip mifologik metamorfozaning qat'iy shakllari bilan bog'liq. Uning mohiyatida "asl" ilmi izlayotgan odamning hayot yo'li", – xronotopi yotadi. Masalaga U.Jo'raqulov o'z munosabatini davom etarkan: "Bu tipga Platonning "Suqrot raddiyasi", "Fedon" asarlari kiradi. Ma'rifat va tafakkur vositasida haqiqatni topish va bu yo'l davomida o'z-o'zini anglash, asl mohiyatga yetishuv ayni tipning muhim belgisidir. Ikkinchi biografik tip esa antik yunon muhitida turli marosimlar negizida vujudga kelgan ritorik asarlar bilan bog'liq ravishda shakllangan. Jamiyat kishilardan har tomonlama usutun mashhur shaxslarni xotirlash,

ularning hayot yo'llarini tarbiyaviy aspektda hikoyalash, faoliyatlaridagi e'tiborli jihatlariga urg'u berish, voizda biografik nutq irod etishni talab etgan. Mana shu tamoyilga jiddiy e'tibor beradigan bo'lsak, avtobiografik ko'rinishdagi norealistik qissalarda – makon tipik xususiyati, yozuvchining o'z-o'zini tahlil va taftish qilish oraqli – zamonga mos tizim yaratish muhimligiga intilish mavjudligi ayonlashadi. Zamonning og'riqlarini, iztiroblarini, ma'rifatu ma'naviyatini ikki tushuncha orasida baholaydi: “kechgi kun menga nima berdi, men ertangi kunimga nima qoldiraman?” Bu achchiq savol har bir yozuvchi ijodida – qizil ip bo'lib o'tib turibdi. Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, makonning bag'rida qoim bo'lgan har qanday voqelik – kechaning topishlari-yu, yo'qotishlari, ijtimoiy-siyosiy tuzumning xatolari-yu, nayranglari ta'sirida shakllanishi ayni haqiqatdir. Bitta narsani yodda tutmoq lozim. San'at asari davrning og'riqlarini katta, ixcham va umumestetik planda yuzaga chiqaradi. Mana shu talqin esa insonning botinigo'zalligini ham, zohiriy suvratini ham namoyon qiladi. Ramzalar, metaforalar, shtrixlar barchasida millat dardi, insoniy fazildatlar, xislatlar, xudbinlik, yolg'izlikni barham berish uchun o'uylab topilgan oliy qadriyatlar yig'iladi. Bu yig'ilgan tushunchalar ramzlar tilida (norealistik) shaklda o'quvchini junbishga keltiradi. Uni hayratlantiradi, unga shavq-zavq beradi:

“Bir oycha oldin machitga bordim, tavba qildim, endi hayotimni toat-ibodatga bag'ishlay, qilgan gunohlarimga iqror bo'lay degandim. Bugun esa, yana gunohga bodtim. O'z qizimni bo'g'ib o'ldirdim. Nega deysizmi? O'zim ham bilmayman. Ammo boshqa toqatim qolmadi. Meni bu qismat xo'rlab tashladi, men gunohlardan biri to'la qutilish uchun shunday qildim. Endi ancha yengilman. Qizim esa hozir kecha qanday uxlagan bo'lsa shunday abadiy uyquda yotibdi. Men o'zimni bosib olish, iqrorim osonroq bo'lish uchun kallamni qizitib olishga keldim. Albatta. O'zim boraman, hammasini aytib beraman. Endi menga hech narsaning qiziq joyi yo'q. Qo'rquv orqada qoldi. hayot har kuni kiyib yuradigan libosday oddiylashdi. Bir kekxa odammman. Meni nima qilisha olardi. Berilajak jazo, har qalay, vijdon jazosidan yengilroq? Shunday emasmi? Meni hech kim o'zimdek sud qilolmaydi. Men o'zim ustimdan o'qigan hukm oldida boshqa hukmlar burgut oldida pashshaday gap. Mening hukmim o'zim haqidagi har qanday hukmdan zahmatliroqdir. Mana kecha jinoyatchi men, jabrdiyda men va hakam bir joyga to'plandik”.

Yozuvchi N.Eshonqulning “Qora kitob” qissasidagi mazkur parcha ramzlar tilida – Shayton va Odam orasidagi muloqotning eng real manzarasini yuzaga chiqaradi. Shayton qahramonni yo'ldan ozdiruvchi, butun yer kurrasidagi Odam Ato va Momo Havvoni jannat quvilishiga sababkor bo'lgan eng asosiy maxluq (farishta) ekanligini to'laqonli dalolatlaydi. “Qora kitob” qissasida yozuvchi butun insonning xatosidan – tug'ilib kelayotgan sonsiz xatolarni tahlilu taftish qiladi. Uning iztiroblarini ham, qayg'ulari, quvonchlarini ham katta epik planda tasvirlaydi. Shayton (Iblis) bilan muloqot qilgan har qanday insonning har bir kuni xato va adashishdan boshqa narsa emasligini taqozlaydi. E'tibor berilsa: asar qahramoni ichkilikka ruju qo'ygan, aval o'g'lini keyin qizini o'ldirgan tirik jinoyatchi sifatida talqin qilingan. Bu yerda Shaytonning ishiga aralashish orqali yoki unga ergashish mutelikka, qaramlikka va e'tiqodsizlikka olib kelishini tushuntirish masalasi turibdi. O'g'il va qiz esa – nafs ramzidir. Bu holat Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Rabg'o'ziy asarlarida turli epik shakllarda namoyon bo'lgan. “Qora kitob” ramzlar tili asosiga qurilgan qissa. Unda inson yo nafsni yengishi kerak, yoki nafsqa qul bo'lib xato-ketidan xato yog'ilaveradi. Asardagi XX asrda butun insoniyat tarixida sodir bo'lmagan mudhish xatolar namoyon bo'ladi. Mana shu xato evaziga odamzod hali hanuz qilmishlarining jazosini olib yashayapti degan katta ijodiy, falsafiy, umuminsoniy konsepsiya mavjud.

Jeyms Joys talqinlarida Shayton obrazi va mifologik tabdil yaxlitligi. Ayonki, “Musavvirning yoshlikdagi shamoyili” romanidagi avtobiografik xarakter qamrovi

yozuvchini bir necha barobar “o’sish” fenomeniga ro‘baro‘ qildi. U o‘z-o‘zini taftish qilar ekan, hayot shunday marom bilan davom etadigan jimlikdan iborat, faqat u inson ruhiyatida aks-sado bersa “portalash”i mumkin degan xulosaga keladi. Jeyms Joys ana shu konsepsiya negizida so‘z yuritadi. “Demak, yozuvchi har bir qahramonning ovozi, yuz ifodasini, kechinmasini, so‘zlashish uslubini berish uchun, uning xatti-harakatini, iroda yo‘nalishini asoslash uchun, albatta o‘sha qahramonlarning qiyofasiga kirishi shart qilib qo‘yadi. Busiz, yozuvchi qahramonning o‘sha sharoitdagi, ayni shu vaziyatdagi qalb holatining o‘ziga xosligini tasvirlay olmaydi. Darvoqe, tasvirlanayotgan shaxs bilan yozuvchining shaxsi o‘rtasida o‘xshashlik bo‘lmasa-da, baribir, o‘zining yuzlab qahramonlarining ichki tabiatiga mos o‘zak nuqtalarni topib tasvirlash qudratiga ega. Chunki, yuqorida aytganimizdek har birimizda yashirin tarzda insoniy xususiyatlarning hammasi mavjud, lekin ulardan qay biri bo‘lsin ichki ehtiyoj (qahramon xarakteri) talabi bilan birinchi planga chiqqanida, yozuvchi tasavvurida jonlana beradi. Ba’zilar o‘ylaganidek, hamma, dunyoda bor ruhiy kechinmalarni yozuvchi boshidan o‘tkazgan bo‘lishi shart emas” – deya yozadi prof. H. Umurov. Darhaqiqat, har bir qahramon ruhiy olamini tasvirlashda, muallif o‘zining ham kayfiyatini, kechinmalarini, ichki iztirbolarini, qiynayotgan savollarga topishga intilayotgan javoblarini ham berishi mumkin bo‘ladi. Buning oqibatida hayot haqiqati o‘zining real manzarasini ko‘rsatishi qiyinlashadi. Jeyms Joysning mifologiyasida inson taqdiri birinchi o‘ringa ko‘tarilar ekan, natijada sirli va muhtasham bir obida maydonga chiqishi aniq bo‘ladi. Stiven Dendalus xarakteridagi o‘sis-o‘zgarishlar buning yorqin namunasi ekanligini tushunib yetamiz. “Musavvirning yoshlikdagi shamoyili” asarida yozuvchi ikki jihatga alohida o‘rin ajratadi: birinchidan, adib hayotning muhim qirralariga diqqat qaratsa, ikkinchidan, qahramonni o‘rab turgan muhit qiyofasini chamalashga intiladi. Mana shu birlik natijasida yozuvchi Yevropada hukm surayotgan noinsoniy kayfiyat manzaralariga munosib javobni Dublin xaqli timsolida gavdalanitira oladi. Shayton obrazi Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam badiiy izlanishlarida yaqqol ko‘zga tashlansa-da, Jeyms Joys cherkov va hokimiyat yaxlitligida XX asr boshlarida mifologik kiritma voqealar bilan nihoyatda go‘zal tarzda idroklay oldi:

“Qachondir umr ko‘rgan, dunyoga kelmoq nasib etgan Odam Atoning jamiki o‘g‘il-qizlari – hamma-hammalari bu ulug‘ kunda qoyim bo‘ladilar. Ana shunda oliy hakam hozir bo‘ladi! Na tangrining itoatkor qurbonlik qo‘zisi, odamovi nasroluk Nabi Yasu, na odamning mas‘um o‘g‘il va na ezgu qo‘ychivon najotga keladi. U bulutlar ustida ilohiy qudrat, shon-shavkatlarga burkanib paydo bo‘ladi. Va tevaragida to‘qqiz mulozimi hoziru nozir: farishtalar va maloiklar, taxtlar, boyonlar, qudrat, samo kuchlari, oliy va eng yuqori martabali farishtalar. U aytadi va uning ovozi olamning hamma burjiga, jahannam qa‘rigacha yetib boradi. Oliy hakam u, ugina hukmni o‘qiydi, bu hukm eng so‘nggisi. U iymonli mo‘minlarini o‘z panohiga oladi va sizlar uchun bunyod etganim – boqiy huzur-halovat saltanatiga kiring deydi. Iymonsizlarni esa quvib haydaydi va ilohiy g‘azab bilan xitob qiladi: “Ko‘zimdan nari keting, betavfiqlar, olovda kuyingiz, iblis va uning malaylari yonajak olovda”. Eh, badbaxt gunohkorlar uchun bu naqadar og‘ir azob! Birodarlar bir-biridan, farzand ota-onadan, erlar ayollaridan ayri tushadilar! Baxtiqaro gunohkor banda yolvorib qo‘l cho‘zadi, talpinadi, balki foni dunyoda yolvorib qo‘l cho‘zadi, bir paytlar sodda va samimiyligidan o‘zi kulgan kishiga talpinar, balki diyonatli yo‘lga da‘vat etgan, pand-nasihat qilgan kishiga intizor boqar...”

Yevropa mifopoetik tafakkur sarhadlarini juda keng masshtabda yoyinlanishiga katta hissa qo‘shan Jeyms Joys o‘z vatani Dublin halqi chekkan aziyatni diqqat bilan xotirlaydi. Alloh taoloning go‘zal in‘omi bor deydi u. Unda Iblis yo‘rig‘ida umr kechirganlar, jazosini albatta olajagini, qolganlar esa O‘z taqdiri yo‘lida Jannat havosidan bahramand bo‘lishini chamalaydi. Chunki yozuvchi Dublin xalqini emas, u yerdagi korchalon amaldorlarni yomon

ko'radi. Ularning ruhiyatida aks etgan hayotning achchiq zarbalaridan xavotirga tushadi. Bunday ziddiyatlar Joysning botinini kolliziyalarga to'ldiradi. Haqiqatdan ham, "men nafas olayotgan hayot shundaymi yoki mening o'zim shundan iboratmanmi" degan katta bir savol qarshisida iztirob tortadi. Mana shu tamoyil Jeyms Joys ijodida qizil ip bo'lib, hayotning barcha qatlamlariga qadar kirib boradi. Insonning nima bilan og'rishi, ruh va qalb dialektikasi barchasida olamshumul hasratlar simoniyasi mayinlik bilan oldinga qadam tashlaydi. Yozuvchi bu kabi ziddiyatlari formulalarni ruhiy iztirob deb ataydi. Ayniqsa, Stiven Dendalus kayfiyatida – kim yomon bo'lsa, albatta jazoga muqarrar, kim yaxshi bo'lsa ehsoni ham yaxshilik ekanligini bot-bot ta'kidlaganida qabarib ko'rinadi.

Stiven Dendalus fikricha qiyomatga qadar kezuvchi – darbadarlik (agasfer) obrazi hamma o'lkalarga tariqdek sochilib ketganligini his qilish qiyin emas. Mana shu qadriyatlar zimnida hayot bir tekis ketmasligini, qaysidir mezonning buzilishi odamning yo'ldan adashishiga olib boradigan mudhish xato ekanligini ko'rsatishga bel bog'laganligida deb bilamiz. Joysni bezovtalagan narsa odam bolasi gunoh qilishdan sira qo'rqmay qo'yganligi, tavba va tazarru esa ko'z-ko'z uchun faqat niqob ostida davom etayotganidan dalolat beradi. Joys mana shu ziddiyatli davr orasida umr kechirdi. Sarson-sargardonlik, qashshoqlik va muhtojlik uni irodasini tobora mustahkamlab bordi. Chunki bir vaqtning o'zida ham iblisdan jirkanish his etishi, ikkinchidan pulga o'ch amaldorlarni yovvoyi cho'chqadan farq yo'qligini isbotlashga kirishish tushuniladi. Bular asta-sekinlik bilan 70 yil hukm surgan sobiq ittifoq oligraxlarining ham qismatida bor narsa ekanligini ta'kidlashida namoyon bo'ladi. O'zbek adiblari mafkura yo'rig'idan bir qadam chiq olishmadi. Mana shu davrning qatag'onlari ham qismatida shunday mudhish bir ko'rgulikning borligini ich-ichidan his etardi. Demak, Jeyms Joys iztiroblarida muhim bir konsepsiya iblisni jazosini olishiga ishontirish barq uradi. Alloh qiyomatga qadar odamni savob va gunoh qilishiga qadar sinaydi. Lekin kim qaysi makonni Vatan tutadi, u Tangr taoloning irodasiga, xohishiga bog'liq degan aqida hukmi turadi.

"Joys bu asarda mashhur fransuz romannavisi Gustav Floberning hikoya qilish an'anasi merosxo'ridek namoyon bo'ladi. Uchinchi shaxs tomonidan hikoya qilish bilan personaj va hikoyachi "men"i – ruhiy markazlari bir-biriga to'liq mos kelganida mumkin bo'lgan aynan o'xshashlikni nazarda tutadi. Ammo Joys ikki taraflama nuqtai nazarni taklif etgan holda, qaysidir bir jihatdan Floberdan ham uzoqroqqa bordi. O'z qahramoniga yaqinlikni, u bilan dilkash va sirdosh aloqadorlik effektini kuchaytirish maqsadida, Joys "ong oqimi" deb ataluvchi badiiy uslub texnikasidan foydalanadi. Hikoyachi va "ong oqimi" o'rtasida ma'lum masofani saqlash uchun esa, muallif o'z personajining ulg'ayishi: bolalik, o'smirlik, yoshlik, ijodga ilk qo'l urish bosqichlari bilan hamohang besh bobning har birida yozuv va nutq usulini o'zgartirib, romanning uslubiy jihatdan o'sish, rivojlanish sur'atini oshirishga harakat qiladi", - deya yozadi prof.M.Xolbekov. Shunday ekan, yozuvchining botinidagi ong oqimi bilan tashqi muhit va ziddiyatlar tutashuvi katta plandagi surtlanish manerasini yaxlitlashtiradi. Mana shu tamoyil hayotning barcha jabhalariga singib, yagona estetik markazda uyushadi. "Ong oqimi" hayotning turli xil vaziyatlarda tuslanib borishini ham, jamiyatdagi o'sish-o'zgarishlarning qiyofasini ham chamalashga imkon beradi.

Prof. M.Qo'chqorova yozishicha: "Hozirgi o'zbek nasrida qadim mif va afsonalarga kuchli ehtiyoj paydo bo'lgan. Muayyan ijodkor tomonidan yaratilgan sub'yektiv mif yoki mifologik tafakkur asosida shakllangan badiiy asar qurilmasi, mifologemalar ishtiroki, syujet va motivlari hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida yangi adabiy yo'nalish – neomif nasrni tashkil etmoqda. XX asr ijodkorlari yaratgan neomif nasr mazmun va mohiyat jihatidan aynan miflarni takrorlash emas, mifologik syujetga, obrazga (mifologemalarga) yangicha nigoz tashlashdir. Xususan, bugungi o'zbek yozuvchilari "Qur'oni karim"dagi rivoyatlar (Odam ota bilan Momo Havoning uchrashishi, jannatdan yerga badarg'a etilishi; Shaytonning jannatdan

quvilishi, Ya'juj va Ma'juj, Qobil va Hobil hikoyati; "Ashobu qahf afsonasi" va boshqalardan) va diniymifologik qahramonlar: Shayton, Jin, Suvosti maxluqi, hukmdor Iskandar, g'orda uxlab qolgan yetti aka-uka va bir it obrazlarini yangicha nigoh, yangicha ruh bilan ijod qilishdi. Masalan, Sh.Bo'tayev "Shox" romanida Ximer, N.R.Muhammad "Shaytoni Buzurg" hikoyasida Shayton Buzurg obrazini yaratishda Qur'oni karim va boshqa diniy manbalardagi suralar, oyatlar, rivoyat va hikoyatlar motiviga suyanadi". Haqiqatdan ham, M.Qo'chqorova to'g'ri ta'kidlaganidek, neomif yangi davr romanlarida, ayniqsa, 2010-yillardan keyingi yaratilgan asarlarda boshqacha rakurslarda jaranglay boshladi. Ungacha aralash holda zuhur etilgan bo'lsa-da, Jeyms Joyslar avlodining an'analari o'sha davr romanlari-yu, qissalarida rang-barang ko'rinishlarda namoyon bo'ldi. Dunyo adabiyotida – Shayton obrazi bilan bog'liq yuzlab mukammal romanlar yaratildi. Ularda jannat va do'zax tushunchasi, odamlarning har qanday shart-sharoitda kun kechirishi, alamzadalik va razillik, yaxshilik hamda yomonlikning bir odam qalbida yashirin sinoati bilan turfalandi. Demak, hayotning har bir qatrasida quyosh nuri aks etganidek, Shayton obrazi ham yangi davr an'analari jiddiy sinovdan to'kazishga zamin hozirladi. Bunday mifopoetik qamrov tig'izlashuvi hayotning mukammal qiyofasini ko'z o'ngimizda tasavvur etish imkonini beradi. Mana shu talqin metodologiyasi hozirgi kunda Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romanida alohida konsept sifatida teranlagib borayotganidan dalolat beradi:

"Bu dunyoni ma'lum vaqtga qadar kezib yurishga mahkum ekanim sizni adashtirdiyu olamning bir kuni chang-to'zonga aylanib ketishini bilaturib, menga mangu nom beryapsizmi? Iblis sizga turli nayranglar ko'rsatib. Turli narsalarni ko'zingiz oldida rang-rang jilvalantirib hiylalar qiladi. Men yuzlab yillardirki, yurgan yo'limdan Parvardigorga iltijo qilib gunohimni kechirishini so'rab yolvoraman, yulduzlar uchgan kechalarda, qahraton sovuqlarida, shamol va bo'ronlarda tavba-tazarru qilaman, Shu holimcha, butun turish-turmushim bilan Uning oliy hukmining mutlaq adolati bilan kimlarnidir butun insoniyatga yaxshilik va to'g'rilik ramzi bo'lib qo'ygan bo'lsa, men Oliy Haqiqatga qo'l ko'targanlarning ramziman. Agar O'zi istasa, meni o'sha ummon mahluqining ichidagi fikrlovchi qum zarrasi yoxud gunohlarini ortib yuruvchi mahluqning yelkasidagi mutafakkir tosh shaklida yaratib qo'ya olmasmidi?"

Keltirilgan lavhada Isajon Sulton Shayton obrazining odamzod boshiga solgan sonsiz kulfatini Gvido pyesasidagi qahramon monologi negizida ochiqлагanini ko'ramiz. Chunki qahramon pyesada tamomila boshqa bir monologik nutqni individuallashtiradi. Yozuvchi mifologiyasida Iblis Professor Ziyoga ichida yashaydi degan xulosaga keladi. Chunki o'g'lining Professor Ziyoga yo'llagan maktubida aynan otasining noo'tg'ri yo'lda ekanligini uqtiruvchi bir qancha murakkab tahlillar mavjud. O'g'lining haq ekanligiga umrboqiy odamni yaratish faqat va faqat Tangri taolo ishi ekanligini, agar bunday ishga kimdir qo'lurgidek bo'lsa yoki uni joyi jahannam va bir umr darbadar kezuvchi, qarg'ish urgan bo'lib chiqishini ishora etadi. Yozuvchi Hazrati Xizr bilan qarg'ish olgan darbadar haqidagi rivoyatni tartiblashtirar ekan, Professor Ziyoga Alloh irodasiga qarshi chiqib, boqiy odam nusxasini yaratish yo'lidagi urinishlarini diqqat bilan kuzatgan o'g'lining taxminlarini haqqoniyligini isbotlaydi. Ana shu konsepsiya – boqiy darbadar rolini ijro etayotgan pyesa qahramonlarida ham o'z tasdig'ini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бахтин М. Формы времени и хранотопа в романе(Очерки по исторической поэтики) / В кн.: Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики.-М.: Художественная литература, 1975.
2. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики.-М.: Художественная литература,

- 1975.
3. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. –Т.: “Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”. 2015.
 4. Назар Эшонкул. Ялпиз ҳиди. –Т.: “Шарқ”. 2008.
 5. Умунов Х. Адабий ижод асослари. –Самарқанд. Самду нашри. 2022.
 6. Жеймс Жойс. Мусаввирнинг ёшликдаги шамойили. –Т: “Akademnashr”. 2021.
 7. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. –Т: “Мумтоз сўз”. 2014.
 8. Қўчқорова М. Ҳозирги ўзбек насрида бадиий шартлилик. Филология фанлари доктори (DSc) диссертация олиш учун тайёрланган диссертация–Т. 2020.
 9. Исажон Султон. Боқий Дарбадар. –Т: “Ўзбекистон”. 2011.